

BUXORO AMIRLIGIDA TARIXNAVISLIK

Sattorov Sarvar

BDU II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14182207>

Annotatsiya. Buoxoro amirligi tarixi haqida manbalarni o'rganish, tahlil qilish va ommaga yetkazish har bir kishining vazifasi hisoblanadi. Ushbu maqolada ham Buxoro amirligi bo'yicha manbalarni tahlillab o'tilgan bo'lib, unda manbalarning muhim jihatlari, boshqa manbalardan farqlari aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Risola yoxud Mang'itlar xonadoning qisqacha tarixi", fors – tojik, "norasmiy", "Jo'me al-gulzor", "Tavorixi muttakadimin va muttaaxirin", Ahmad Donish, an'ana, "Tarixi Nofeiy", guftalar, Shefer, shajaraviy, O'zR FA.

HISTORIOGRAPHY IN THE EMIRATE OF BUKHARA

Abstract. It is everyone's duty to study, analyze and disseminate sources about the history of the Buokhoro Emirate. In this article, the sources of the Bukhara Emirate were analyzed, and the important aspects of the sources and their differences from other sources were mentioned.

Key words: "Risola or a short history of Manghitlar Khanado", Persian-Tajik, "unofficial", "Jome al-gulzor", "Tawarikh muttakadimin wa muttaakhirin", Ahmad Donish, tradition, "Tarihi Nofeiy", Guftalar, Shefer, Shajarawi, UzR FA.

ИСТОРИОГРАФИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ.

Аннотация. Изучать, анализировать и распространять источники по истории эмирата Буюхоро долг каждого. В данной статье были проанализированы источники Бухарского эмирата, а также упомянуты важные аспекты источников и их отличия от других источников.

Ключевые слова: «Рисола или краткая история Мангитлар Ханадо», персидско-таджикский, «неофициальный», «Джоме ал-гульзор», «Таварихи муттакадимин ва муттаахирин», Ахмад Донии, традиция, «Тарихи Нофей», Гуфттарлар, Шефер, Шаджарави, УзР ФА.

Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimiz tarixini o'rganishga, uni anglashga e'tibor qaratildi. O'zbekiston davlatchiligi tarixda muhim o'rinnegallagan Buxoro amirligi ham bulardan biri hisoblanadi. Bu davlat o'zining qoldirgan merosi bilan yutimiz tarixiga o'chmas iz qoldirgan.

Buxoro amirligida barcha fanlar qatorida tarix ilmi fan yaxshi rivojlangan. Bu olimlar qatorida Ahmad Donish(1827-1897), Sadr Ziyo(1867-1931), Mirzo Salimbek(1850-1930), Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy, Nasriddin To'ra, Muhammad Ali Boljuvoni, Mirza Siddiq Hashmat, Abu Bakr Muhammad Hayyat, Foziljon Xo'ja bin Odiljon Xo'ja, Mirzo Rajab To'rayi Samarqandiy, Mirzo Mulla Abdurahmon, Hoji Abdurahmonqori Samarqandiy kabi tarixchilarining manbalaridan o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida batafsil o'rganamiz.

Bazi manbalarda muallif tomonidan bo'rtirish yoki haqiqatni yashirish kabi holatlarni ham uchratishimiz mumkin. Bu tarixchilar ichida Ahmad Donishning o'rni bo'lakcha. Ahmad Donish (1827-1897) diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan. Dastlabki faoliyatini Buxoro amirligida Amir Nasrullo davrida xattotlikdan boshlaydi.

Ahmad Donishning ilmiy meroslaridan biri “Novodir ul vaqoe”, “Risola yoxud Mang‘itlar xonadoning qisqacha tarixi”, “Risola dar nazmi tamaddun va taovun” kabi asarni yozib qoldirgan.

Olimning astronomiya ilmiga bag‘ishlan “Manozir ul kavokib” asarlari ham mavjud. Bu asar muqaddima va 3 fasldan iborat bo‘lib, 22 bobdan tashkil topgan. Asar 1875-1882 yillarda yozilgan. Asar Shokirov va Hamroyevlar tomonida birinchilardan bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilishgan. Asarning asl nusxasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv N4266) va shu nusxa tarjima qilishgan.¹

Tuhfai shohiy asarining mantiqiy davomi sifatida “Tarixi Salotini Mang‘itiya” asari hisoblanadi. Mazkur asar 1906-1906 yillar oralig‘ida yozgan. Bu asar Tojikiston Respublikasi FA ShIda saqlanayotgan 927III-raqamli qo‘lyozma bilan O‘zbekiston FA ShIda saqlanayotgan 1458-raqamli qo‘lyozma qiyosiy solishtirilib, L.M. Yepifanova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan hamda so‘zboshi va zarur izohlari bilan 1962 yili Moskvada chop etilgan.²

“Tuxfa-i shohi” va “Tarixi Salotini Mang‘itiya” bir davrga bag‘ishlangan, lekin ayni paytda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. “Tuhfayi shahiy” saroy tarixshunosligi ruhida yozilgan bo‘lib, u hukmronlik qilgan shaxslarni, ularning ajdodlarini ulug‘lagan, ularning ishlarini ulug‘lagan. Bu esa “Tuhfayi shohiy”ni “norasmiy” varianti deb hisoblashga asos bo‘ldi. Aniq ifodalangan muxolifat mazmuni. Shu munosabat bilan u sharqshunos tarixchilar orasida birinchi asarning “noqonuniy” versiyasi sifatida tanilgan³

Buxoro amirligi davrida yaratilgan muhum manbalardan yana biri bu Muhammad Ali Boljuvoniyning “Tarixi nofeiy” asari hisoblanadi. Bu rajab oyining 18-kuni hijriy 1341 (milodiy - 1923 yili, 12 fevral) sana Samarqand shahrining Tillakori madrasasida “Tarixi Nofeiy” asarini yozishga kirishib, hijriy 1346 yili muharram oyining 22-kuni (milodiy - 1927 yil 22 iyun) uni Baljuvonning Beshtang qishlog‘ida nihoyasiga yetkazgan. Asarni o‘qir ekanmiz u qisqa muqaddima, 15 bob va xotiradan iborat.

Asar qo‘l yozmasining tavsifi, kamchiliklari, xususiyatlari haqida A.Muxtorov keng ma’lumot bergen. Bu asarning kitob shaklida ilk bor o‘zbek tilida 2001 yilda “Akademiya” nashridan chiqqan. Bu asarni biz faqat tarixiy manba sifatida qaramasdan, shu bilan birgalikda falsafiy va o‘git beruvchi kitob sifatida qarasak ham bo‘ladi.

Asarni boshqa asarlardan farqli jihatlari ko‘p. Bu asarning birinchi bobidagi Buxoro tavsifida Buxorodagi o‘scha davrdagi madrasalari, masjid, qabriston, mahallalari va Buxoroning 11 ta darvozasini bayon qilib o‘tadi.

Asarning ikkinchi maqsadida Samarqandning go‘zalligi, atrof-muhiti haqida bayon qildi.

Uchinchi maqsadi yetti fasldan iborat bo‘lib bu maqsadida asosan amir Olimxonning faoliyati, ruslar bosqinidan keyin yurtni tark etishi, rus hukumatining Buxoroda hokimiyatini o‘rnatishi, Buxoroda rus istidodiga qarshi “bosmachilik” harakati haqida, shu bilan birgalik ilm fazilatlari va faylasuflar g‘oyasi sharhi haqida ham bayon etilgan. Asarning qimmatligi Turkiston o‘lkasi arxitekturasini kirib kelishi haqida ma’lumotlar uchraydi.

¹ Ахмад Махдум Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангитиз. –Душанбе: Ирфон, 1966

² Ziyoyeva o‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.:T. .nurafshon business. .2022 .-b.52

³ Ziyoyeva o‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.:T. .nurafshon business. .2022 .-b.53

Asarni o‘qir ekanmiz unda Turkiston xalqlari qo‘llagan taqvimlar, xalqlarning urf-odatlari va afsonasi haqida ham ma’lumot olimiz mumkin.

Abdurahmon Tamkini Buxoriyning “Matali al-faxi- ra va matalab al-zodira” (Faxr beruvchi (Buxoro)ning tole’i va zohiriyl muammolar) nomli nazmda yozilgan tarixiy - jug‘rofiy asari qidimgi dunyo tarixidan to muallifning o‘zi yashagan (1915-1916) davrgacha bo‘lgan boy tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgan. Bu asar O‘zR FA ShI qo‘lyozma razami: №8248 fondida saqlanadi. 453 varoqdan iborat ushbu asar Abdurahmon Tamkinining betobligi va bevaqt vafoti tufayli tugallanmay qolgan.

Asarda tarixiy jarayonlarning davriy jihatdan afsonaviy Idris payg‘ambar davridan boshlab to muallifning o‘zi yashagan davrgacha bayon etilishi uning an’anaviy yondashuvlar doirasida va o‘zidan avval yozilgan asarlar asosida yaratilganligini namoyon etadi⁴. Bu asarning farqliligi nasrda emas nazmda ekanligi va Odam alayhissalom davridan emas Idris payg‘ambar davridan boshlanganligi kishini diqqatini tortadi .

Shuningdek, asarda O‘rta Osiyo, Eron, Yaman, Fransiyada sodir bo‘lgan tabiat hodisalari, Movarounnahr va Xuroson shaharlari tarixi to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar, o‘zi yashagan davrdagi Buxoro shahri va uning o‘nta tumani, dahalari, Buxoro darvozalari, karvonsaroylari, har bir tumanning o‘ziga xos geografik tuzilishi va joylashuvi, chegaralari, masofasi, yer maydoni, aholi soni va tarkibi, turmush tarzi, kasbi-kori, xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo ishlari, dehqonchilik va chorvachiligi, tarixiy ziyoratgohlari, masjid va madrasalari haqida batafsil ma’lumot berilganligi uning manbaviy qimmatini yanada oshiradi.

Biz bu manba orqali nafaqat O‘rta Osiyo tarixi shuningdek Yevropa, Yaqin Sharq va Musulmon mamlakatlari tarixi, geografiyasi va tabiatini haqida qiziqarli va kerakli ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Mir Abdulkarim Buxoriyning “O‘rta Osiyo tarixi” degan shartli nom bilan ma’lum bo‘lgan asari muallifning elchilik tarkibida amalga oshirilgan safarlar asosida bitilgan. Mir Abdulkarim ibn Mir Ismoil Buxoriy 1807 yilda Buxorodan Rossiya orqali Konstantinopolga safar qilgan elchiga hamrohlik qilgan. 1818 yilda u Konstantinopoldagi Buxoro elchisining shaxsiy kotibi lavozimiga tayinlangan.

Turkiya Maorif vazirligining ma’naviyat bo‘limi boshlig‘i Orifbey Afandining maslahati bilan Mir Abdulkarim Buxoriy o‘z asarida elchi bilan safar qilgan mamlakatlar va shaharlar, jumladan, O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston mintaqalarini tavsiflab bergan. Abdulkarim Buxoriy ko‘plab tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchisi bo‘lgan. Asarda 1740 yildan 1818 yilgacha bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar, xususan, O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg‘oniston tarixi yoritilgan bo‘lib, Buxoro xonligidagi voqealar nisbatan aniq va batafsil tasvirlangan, voqealar sabablarli, ularning asosiy ishtirokchilarining faoliyati va tabiatiga oid qiziqarli ma’lumotlar qayd etilgan.

Asarning “O‘zbek xonlari nasl-nasabiga oid”, “Amir Shohmurodbiyning o‘g‘li Sayyid amir Haydar to‘g‘risida hikoya” va “Urganch va Xiva hukmdorlarining nasabnomasi”, “Muhammad Aminbiy Ko‘ng‘irot Inoq qissasi” kabi boblarida turli qabilalar, shuningdek,

⁴ Ziyoyeva o‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.:T. .nurafshon business. .2022 .-b.48

mintasada, shu jumladan, Xorazm vohasida yashagan etnik guruuhlar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Asar- ning Dashti qipchoq, uning aholisi va iqlimini tavsiflovchi qismi alohida ahamiyatga ega. Ushbu asar 1876 yilda Parijda Shefer (1820-1898) tomonidan fransuzchaga tarjima qilingan va “O‘rtal Osiyo tarixi” degan shartli nomi bilan nashr etilgan.

Asarda Afg‘onistonda hukmronlik qilgan sulolalar va ularning faoliyati, Buxoroda Abulfayzxondan boshlanib amir Haydargacha, Xivada Muhammad Amin Inoqdan boshlab Muhammad Rahimxongacha, Farg‘onada Qo‘qon xonligining tashkil etilishidan Umarxonongacha bo‘lgan davrni qamrab oladi, shuningdek Tibet xonligi va bir qancha mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida ma’lumotlar berilgan.

Amir Haydar topshirig‘i bilan yozilgan yana bir manba bu “Tarixi amir Xaydar” (Amir Xaydar tarixi) asari asari bo‘lib, asar XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning birinchi yarmida yashagan buxorolik Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Shariflarning qalamiga mansub bo‘lib, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan. Asar Buxoro xonligi tarixining Ashtarkoniylar hamda mang‘itlar sulolasi vakili amir Haydarxon (1800-1826 yillar) hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni qamrab oladi. Asarning 1-2-boblarida Buxoro shahri tarixi, 3-6-boblarida Ashtarkoniylar sulolasi davrining yoritilishi, asarning oxirgi 7-8-boblarida esa amir Haydarning tug‘ilishidan to uning vafoti (1826)gacha bo‘lgan yillar yoritilgan. Bu asar O.D. Chexovich tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

“Fathnomayi sultoniy” (Sulton fathnomasi) nomli asar “Tarixi amir Nasrulloxon” nomi bilan ham ma’lum. Muallifi Mir Olim Buxoriy Amir Nasrulloxon davri (1826/27-1869/79)da G‘uzor hokimi Muhammad Olimbekning xizmatida bo‘lgan va asar uning topshirig‘i bilan yozilgan. “Fathnomayi sultoniy” amir Shohmurod (1785/86-1800) davridan to amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga oladi.

“Fathnomayi sultoniy” so‘z boshi, 29 ta bob va bayondan iborat bo‘lib, asar XVIII asrning ikkinchi yarmidagi voqealarni tasvirlash bilan boshlanadi. Asarda Amir Shohmurod va Amir Haydarning hukmronligi, uning vafotidan keyin taxtga kelgan Amir Nasrulloxonning yurishlari, Qo‘qon xoni amir Umarxon kurashlari, Shaxrisabzga yurishlari, hokimiyat uchun olib borilgan kurashlar natijasida ro‘y bergen voqealar haqida batafsil to‘xtab o‘tilgan. Amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarida yozib tugatilgan ushbu asar muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yaratilgan. Asar taxminan ikki qismdan iborat bo‘lib , uning birinchi qismi tarjima qilinib, ikkinchi qismi bizgacha yetib kelmagan⁵.

“Tavorixi avail va avaxir” (Boshlanish va tugalanish tarixi) nomli asar muallifi Muyniddin amir Haydarning zamondoshi bo‘lgan va uning hukmronligi davridagi voqealarni guvohi bo‘lgan shaxs sifatida bayon qilgan. Asar juda sodda tilda yozilgan bo‘lib, an‘anaga ko‘ra, Islom qoidalarga ko‘ra Odam Atodan boshlab, payg‘ambarlar, xalifalar, imomlar va to‘rtta mazxabning asoschilariga ta’rif berilgach, Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarkoniylar haqida umumiyl ma’lumot berib, Mang‘itlar davri tarixini bayon qilgan bo‘lib amir Nasrullo taxtga kelishigacha ya’ni 1826 yillarni o‘z ichiga oladi.

⁵ Doniyorov.A Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi.T.MIFNSH.2020.-b 219

Asarda XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi choragida amir Shohmurod (1785-1800) va amir Haydar (1800- 1826) tomonidan davlat chegaralarini kengaytirish maqsadida qo'shni xonliklar bilan olib borgan urushlar, xususan, Xiva va Buxoro o'rtasidagi janglar va muzokaralar, Amir Haydar vafotidan keyin boshlangan parokandalik, uning o'g'illari o'rtasida toj-taxt uchun kurashlar o'z aksini topgan. Muallif asarda o'zbek xonlari faoliyatiga oid juda ko'p tarixiy sanalarni qayd etgan. Asar 1826 yilda Buxoro taxtiga amir Nasrulloxonning kelishi bilan yakunlangan va unga o'zbeklarning yuz qabilasi hamda mang'itlarning ba'zi avlodlari to'g'risidagi alohida bob ilova qilingan⁶.

Buxoro amirligi tarixshunoslik maktabining asoschilaridan bir bu Muhammad Vafo Karmaginiy hisoblanadi. Uning "Tuhfayi Xoniy" (bazi manbalarda esa "Rahimxon tarixi") asari mang'itlar sulolasi davridagi birinchi manba hisoblanadi. Bu asarni dastlab A.A. Semenov, N.D. Mikluxo-Maklay, shuningdek, A.M. Mirzoyev va A.N. Boldirevlar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Asar ikki qismidan iborat bo'lib, birinchi qismi 1758 yilgacha ya'ni Muhammad Rahimxon vafotiga qadar bo'lgan Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini qamrab olgan.

Ikkinchi qismi esa 1758-1769 yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Asar 1782 yilda tugallangan bo'lib, hozirda asl nusxasi Dushanbeda saqlanadi⁷. Birinchi bo'limning dastlabki uchdan ikki qismida Vafo to'rtta asosiy mavzuni qamrab oladi: Muhammad Rahimxonning ajdodlari Nodirshohning Mavarounnahrni zabit etishi, Muhammad Rahimxonning Nodirshohga xizmati, Nodirshoh vafoti va Buxoro hududidan qizilboshlilarni haydab chiqarish va Muhammad Rahimxonning hokimiyat tepasiga kelishi va mamlakatda tartib o'rnatishi haqida. Chunki o'sha paytlarda mamlakatlarda boshlangan qo'zg'alonlar va tarqoqliklarni bostirish uchun kurash olib boradi. Buy janglarda alohida sarlavha beradi muallif. Oxirgi boblarida Muhammad Rahimxonning taxtga chiqishi, saroydagi mansablarni taqsimlanishi va uning o'limi haqida yozgan.

Ikkinchi qismida muallif dastlab Muhammad Doniyolbiyning Abulfayzxon va Muhammad Rahimxon davridagi vakolatlari va xatti-harakatlarini haqida, shu bilan birga u asarni birinchi qismga tez-tez qaytadi va bu yerda mang'itlarning o'rni haqida gapiradi. Shundan so'ng Muhammad Vafo Doniyolbiyning hokimiyat tepasiga kelishi va uning mamlakatdagi qo'zg'olonlarni bostirishga qaratilgan harakatlarini tasvirlaydi. U Kitob va Shahrisabzga qarshi jang va hukmdorning Buxoroga g'alaba bilan qaytishini tasvirlash bilan asarini yakunlaydi.

Mang'itlar sulolasi bo'yicha "Gulshan al-muluk" asari o'zining sodda bayoni, aniq sana va faktlarga boyligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, mang'itlar va ular bilan qarindoshi bo'lganbeklarga oid shajaraviy ma'lumotlar boshqa manbalarda bunday to'liq shaklda uchramasligi bilan e'tiborga loyiq.

Asarda an'anaga ko'ra, Muhammad payg'ambar davridan boshlab, birinchi mang'itlar hukmronligi davrigacha bo'lgan umumiylar tarix haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Uning so'nggi qismida Shayboniyalar davridan to 1830 yilgacha bo'lgan davr tarixi, Amir Nasrulloxonning Buxoro taxti uchun olib borgan kurashlari o'z aksini topgan.

⁶ Ziyoyeva o'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.:T. .nurafshon business. .2022 .-b. 39

⁷ Анке фон Кюгельген . "ЛЕГИТИМАЦИЯ СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ДИНАСТИИ МАНГИТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИХ ИСТОРИКОВ". Алта-ата. "Дайк-пресс".2004.-С 110

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buxoroda hukmronlik qilgan Mang‘itlar sulolasi tarixini churuqroq o‘rganish, amirlarning olib borgan ichki va tashqi siyosatini, islom dini rivojiga qo‘sghan hissasini bilish kerak. Sovet davrida nashr etilgan manbalarни qaytadan tahvil qilish kerak. Chunki u davrda manbalar faqat bir yo‘qlama yozilgan bo‘lib kitobxonga u davr haqida noto‘g‘ri tushinchcha beradi.

Shuningdek , arab va fors tili manbalarini biluvchi mutaxasislani ortirishimiz lozim, xorijda qolib ketgan asarlarni u yerga borib o‘rganib vatanimiz tarixini boyitishimiz kerak.

REFERENCES

1. Ziyoyeva o‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.:T. .nurafshon business. .2022
2. Doniyorov.A Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi.T.MIFNSH.2020
3. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIXв.в) – Алматы: Дайк-Пресс, 2004.
4. Аҳмад Маҳдум Доңиши. Рисола ё муҳтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангитиз. –Душанбе: Ирфон, 1966
5. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Т: Академия, 2009.
6. Мирза Абдалазим Сами. Таърих – и салатин-и мангитийя. – Москва: Изд: Восточной литературы, 1962.